

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

ISSUE 9

SEPTEMBER

Journal of


RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

JORAI



IMFAKTOR
PAGES

2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

1-ЖИЛД, 9-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-1, НОМЕР-9

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-1, ISSUE-9

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 9 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-9>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
4. Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
5. Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
6. Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
7. Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори
8. Камалова Дильфуза Энуровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
10. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
11. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
12. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
14. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
15. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
16. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054912**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.1 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

MA'RUFJONOV Abduraxmon Mo'sinjon o'g'li

Farg'ona politexnika instituti

tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8339766>

G'O'ZANI SUG'ORISH ME'YOR VA MUDDATLARI HAMDA TEJAMKOR TEXNOLOGIYASI

ANNOTATSIYA

G'o'zani sug'orishda me'yor va muddatlarni to'g'ri belgilash g'o'za navlarining biologiyasi va qimmatli xo'jalik belgilariga bog'liq holatda hosil elementlarini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolversa sug'orishning resurs tejamkor texnologiyalarini qo'llagan holda sug'orishni amalga oshirish nafaqat suvni tejashga olib keladi, hosildorlikni ham sezilarli ortishiga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: g'o'za, suv resurslari, texnologiya, sug'orish muddati, sug'orish me'yori, cheklangan dala nam sig'imi, egatlab sug'orish, tomchilatib sug'orish, vegetatsiya davri, o'rta qumoq, sizot suvlar.

УВЕЛИЧЕННЫЙ РАСХОД ТОПЛИВА И ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТЬ САМОЙ ЭФФЕКТИВНОЙ ТЕХНОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ

Правильное определение норм и сроков полива хлопчатника имеет важное значение для сохранения элементов урожайности в зависимости от биологии и ценных хозяйственных признаков сортов хлопчатника. Более того, осуществление орошения с использованием ресурсосберегающих технологий орошения не только экономит воду, но и создает основу для значительного повышения продуктивности.

Ключевые слова: хлопок, питание водные ресурсы, технология, период орошения, норма орошения, ограниченная влагоемкость поля, общее орошение, капельное орошение, вегетационный период, средний песок, качество воды.

INCREASED FUEL RATE AND DURATION OF THE MOST EFFICIENT TECHNOLOGY

ANNOTATION

Correct determination of rates and periods of irrigation of cotton is important in maintaining yield elements depending on the biology and valuable economic traits of cotton varieties. Moreover, implementation of irrigation using resource-saving irrigation technologies not only saves water, but also creates the basis for a significant increase in productivity.

Key words: cotton, food water resources, technology, irrigation period, irrigation rate, limited field moisture capacity, general irrigation, drip irrigation, vegetation period, medium sand, water quality.

G'ozaning sug'orish muddatlari tuproq namligiga, bargning fiziologik ko'rsatkichlariga, o'simliklarning tashqi belgilariga va gullash bo'g'inlariga qarab belgilanadi.

Sug'orish muddatini tuproq namiga qarab belgilash eng ob'yektiv usul hisoblanadi. Buning uchun tuproq parmasi yordamida har 10 sm qatlamdan hisobiy qatlam chuqurligigacha tuproq namunalari olinadi va ularning namligi aniqlanadi. Agar tuproqning namligi cheklangan dala nam sig'imi (CHDNS) ga nisbatan 65-70% ni tashkil etsa sug'orish o'tkaziladi

Dala sharoitida sug'orish muddati quyidagicha belgilanadi: 30-40 sm chuqurlikdan olingan tuproq qo'lda siqilganda mushtlanmasa va yerga sekin tashlaganda sochilib ketsa, demak, sug'orish kerak.

Sug'orish muddatini bargning morfologik belgilarga qarab ham aniqlash mumkin. Agar barglarning rangi o'zgarib to'q yashil tusga kirgan bo'lsa, barglardagi turgor holat susayganda, kunduzi soat 2-3 larda bargning asosiy tomiri egilganda qirsillab sinmasa g'ozani sug'orish talab etiladi. Buning uchun uchastkaning diognali bo'ylab har 1 gektardan kamida 30-40 ta o'simlik tanlab olinadi.

G'ozaning gullash – ko'rak tugish davrida gulining boshpoya o'suv nuqtasiga nisbatan joylanishi ham navbatdagi sug'orishni aniqlashda ancha ishonchli ko'rsatkich hisoblanadi. Sug'orishni shunday o'tkazish kerakki, toki yuqoridagi gulning o'suv nuqtasiga nisbatan joy almashinuvi asta-sekinlik bilan o'tsin va bo'g'in oraliqlari aynan 4-5 sm masofada bo'lsin. Masalan, sizot suvlar sathi chuqur bo'lgan tipik bo'z tuproqlarda g'ozaga gullay boshlaganida gullar boshpoyaning o'suv nuqtasidan sakkizinchi-to'qqizinchi, iyul oxiri- avgust boshida yettinchi, avgustda esa to'rtinchi-beshinchi hosil shoxining birinchi o'rnida turganida sug'orishga kirishish mumkin.

Gullash bo'g'inining balandligi aniqlanadigan o'simliklar dalaning diognali bo'ylab tanlamasdan olinaveradi. Gektariga kamida 30-40 ta o'simlik bo'yicha hisob yuritiladi.

Sug'orish muddati to'g'ri belgilansa, g'ozaning bo'g'in oraliqlari 4-5 sm bo'lib, ixcham tup hosil qilib normal rivojlanadi, avgust oxiri-sentyabr boshidayoq pishib yetiladigan dastlabki pastki shona, tugunchalarni ko'p to'playdi.

Ko'p yillik tajribalar asosida tuproq turi va g'ozani rivojlanish fazalariga bog'liq holda sug'orishning takomillashtirilgan tartibi yaratilgan va joriy etilgan (1-jadval).

Sho'rlanishga moyil tuproqlarda namlikning pastki chegarasi CHDNS (cheklangan dala nam sig'imi) ga nisbatan 75-80% darajada qabul qilinadi va mavsumiy sug'orish me'yori sho'rlanmagan yerdagiga nisbatan 20-30% ga ko'paytiriladi.

O'simlikning ildiz tizimi rivojlangan qatlamda tuproq namligining haddan tashqari ko'p bo'lishi, g'ozaga bo'yining cho'zilib ketishiga, bo'g'in oraliqlarini 4-5 sm o'rniga 6-8 sm ga yetishiga, shoxlar yuqori joylashib, hosilga putur yetishiga olib keladi.

1-jadval

G'ozani sug'orish sonlari va me'yorlari

№	Tuproq turi	Gullashgacha	Sug'orish soni va me'yori		
			Gullash-ko'sak tugish davrida	Pishish davrida	Mavsumiy me'yori va soni
1	Yengil (qumli va qumoq)	2-3 marta 500-600 m ³ /ga	3-4 marta 700-800 m ³ /ga	1-2 marta 600 m ³ /ga	7-10 marta 4500-6000 m ³ /ga

2	O'рта qumoq	2 marta 600-700 m ³ /ga	3-4 marta 800-900 m ³ /ga	1 marta 700 m ³ /ga	6-7 marta 4000-5000 m ³ /ga
3	Og'ir qumoq, sizot suvlari chuqur joylashgan	2 marta 700 m ³ /ga	3-4 marta 1000-1100 m ³ /ga	1 marta 700 m ³ /ga	6-7 marta 5500-6300 m ³ /ga
4	Chuchuk va biroz minerallashtirilgan sizot suvlari yaqin joylashgan	1 marta 700-800 m ³ /ga	2-3 marta 700-800 m ³ /ga	-	3-4 marta 2100-3100 m ³ /ga

G'ozani gullash – meva tugish davrida sug'orish rejimini belgilashda shuni e'tiborga olish kerakki, g'ozaga gulga kirishi bilan barglar yuzasi oshadi, ildiz tizimi kuchli rivojlanadi, 1 metr va undan ko'proq chuqurlashadi. Vegetativ organlarni o'sib borishi bilan meva organlari shakllanadi. G'ozaga tupi tobora ko'p suv bug'latadi. Bu vaqtda bir gektar dalaning suv sarflashi sutkasiga 70-90 m³ gacha va undan ham ko'pga oshadi. Shu boisdan ko'p miqdordagi suv va oziq moddalari talab etiladi.

Bu davrda g'ozani shunday sug'orish kerakki, toki generatsiya jarayoni vegetatsiya jarayonidan ustun kelsin, ostki va o'рта yaruslarda imkoni boricha ko'p hosil elementlari saqlanib qolsin. Buning uchun gullash-meva tugish davrida g'ozani chanqatib qo'yishga, o'sish va rivojlanishni susayishiga, barglarning so'lishi va qoramtir tus olishiga, shuningdek, gulning bosh poya o'suv nuqtasiga qarab tez ketishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu davrda sug'orishni ozgina bo'lsada kechiktirilishi va barglarning to'q tus olishi g'ozaga tupining birinchi va o'рта yaruslaridagi shona, tugunchalarning ko'plab to'kilishiga sabab bo'lib, hosilni pasaytirib yuboradi.

Mevalash davrida haddan tashqari ortiqcha sug'orish ham xavflidir. Chunki g'ozaga zo'r berib o'sib g'ovlab ketadi. G'ozani g'ovlab qalin soyalanishi hamda tuproqning ortiqcha namlanishi natijasida shona va tugunchalar ko'p to'kiladi. Oqibatda ko'rak paydo bo'lishi ham, hosilning shakllanishi ham kechikadi. Gullash–ko'rak tugish davridagi sug'orishlar har bir maydonning sharoitidan kelib chiqib tabaqalashtirilishi lozim. Sug'orishni shunday o'tkazish lozimki, toki gullar o'suv nuqtasi tomon asta-sekin ko'tarilsin, boshpoyaning bo'yi esa ko'pi bilan 90-100 sm, bo'g'im oralig'i qisqa (4-5 sm) bo'lib, yotib qolmasin.

Bu davrda sizot suvlari chuqur bo'z tuproqlarda ob-havo odatdagicha kelgan yillari g'ozaga to'rt marta, havo salqin va sernam kelganida – uch marta sug'orilishi kerak. Janubiy paxtachilik mintaqasida g'ozaga suvga ancha talabchan bo'lgani uchun sug'orish soni to'rt–beshtagacha ko'paytiriladi.

Sug'orish me'yorlarini tuproq sharoitlariga qarab tabaqalashtirish kerak. Qalin qumoq va soz tuproqlarda sug'orish me'yori 1100-1200 m³/ga atrofida. Bunday me'yorda tuproqning ildiz o'sadigan qatlami juda yaxshi namiqadi va sug'orishni 14-16 kun oralatib o'tkazish imkoniyati paydo bo'ladi.

Yengil qumoq va qumloq, shuningdek, uncha qalin bo'lmagan qumoq va qum -shag'al yotqiziqli yerlarda sug'orish me'yorlari 700-800 m³/ga gacha kamaytiriladi. Bu tuproqlarning suv tutish xossasi sust bo'lganidan yuqori me'yorlarda sug'orilganda suvning bir qismi katta chuqurlikka singib ketadi va g'ozaga naf bermaydi. Bunday yerlarda g'ozaga 10-12 kun oralatib besh–olti marta sug'oriladi.

O'tloq tuproqlarda sizot suvlarning chuqurligiga qarab, sug'orish me'yorlari bir muncha kamaytiriladi, ayni vaqtda sug'orishlar aro davrlar uzaytiriladi. Masalan, sizot suvlar chuqurligi 2-3 metrga boradigan bo'z o'tloq tuproqlarda g'ozaga 900-1000 m³/ga me'yorlarda uch-to'rt marta sug'orilishi kerak. Bu holda sug'orishlararo davrlar 18-20 kungacha uzaytiriladi.

Sizot suvlar sathi 1-2 m chuqurlikda bo'lganda, 20-25 kun oralatib ikki marta sug'oriladi. Sizot suvlar yaqin joylashgan o'tloq tuproqlarda oxirgi suv 20-25 avgustda quyiladi. Sho'rланishga moyil yerlarda sug'orishni tez-tez o'tkazish kerak [1].

G'oz'a yetilish davriga kirishi bilan uning o'sish jarayonlari sekinlashadi. Bu vaqtda oziq moddalar barglar va poyalardan ko'saklar tomon zo'r berib o'tadi; traspiratsiyaga va tuproq yuzasidan bug'lanishga sutkasiga 30-40 m³/ga suv sarflanadi. Kechiktirilgan yoki katta me'yorlardagi sug'orishlar natijasida tuproq sovub, qatorlardagi havoning namligi oshadi, shoxlar qayta o'sa boshlaydi, tuplarning yotib qolish ehtimoli oshadi, hosilning pishishi sekinlashadi.

Hosil pishish davridagi sug'orishlarni shunday o'tkazish lozimki, bunda qayta vegetativ o'sish bo'lmasin va yetilayotgan ko'saklar me'yorida oziqlansin.

Sizot suvlar sathi chuqur bo'z tuproqlarda sug'orishni 800-900 m³/ga me'yorda o'tkazib, sentyabrning boshida tugallash kerak. Shu suv defoliatsiya o'tkazishgacha tuproq namligini me'yorda saqlash uchun kifoya qiladi. Suv bilan yetarli ta'minlangan g'oz'a barglari defoliatsiyada yaxshi to'kiladi. Defoliatsiyadan keyin g'oz'a sug'orilmaydi, aks holda, barglar yana o'sib chiqadi.

Sizot suvlar 2-3 va 1-2 m chuqurlikda bo'lganda bir marta sug'orish mumkin, 1 metrgacha bo'lganda g'oz'a sug'orilmaydi.

Sug'orish usullari va texnikasi. Hozirgi vaqtda egatlab, yomg'irlatib va tuproq ostidan sug'orish usullari mavjud.

G'oz'ani egatlar orqali sug'orish. Fermer xo'jaliklarida suvni egatlardan jildiratib oqizib, shimdirib sug'orish usuli keng qo'llanilmoqda.

Egat orqali sug'orishni amalga oshirish uchun chigit ekish tugashi bilan har bir dalada o'qariqlar olinadi. Sug'oriladigan maydonlarning yuqori va pastki qismlarini bir tekis namlanishiga erishish uchun yerning qiyaligi past-balandligi va tuproq tipini e'tiborga olgan holda egatlar uzunligini to'g'ri belgilash katta ahamiyatga ega. 60 sm lik qator oralig'idagi maydonlarda o'qariqlar orasi 80-90 metr, 90 sm lik qator orasida esa 100-120 metrdan oshmasligi kerak. O'qariqlar olingandan so'ng katta kesaklar maydalanib, uning chetlariga chigit ekiladi, shunda to'liq gektar hosil qilinadi va maqbul ko'chat qalinligiga erishilib, yerdan unumli foydalaniladi.

Tajribalardan ma'lumki, har bir egatga suv tarab sug'orishga nisbatan egat oralatib sug'orish texnologiyasi ancha afzal. G'oz'a egat oralatib sug'orilganda ko'saklarning ochilishi tezlashadi, hosildorlik oshadi, tola va chititning sifati yaxshilanadi. Egat oralatib sug'orishda suvni iqtisod qilish maqsadida egatlar o'rnini almashtirish, ya'ni navbatlab sug'orishni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu texnologiyaning afzalligi shundaki, har bir suvdan keyin kultivator bir vaqtda suv yurgan qatorni yumshatib, suv yurmagan qatorda egat olib (keyingi suvga tayyorlab) ketadi. Kultivatorga yumshatkich va egat ochkich o'rnatiladi. Ularning o'rni har suvdan keyin o'zgartiriladi.

Tuproqqa kombinatsiyalashtirilgan ishlov berishda odatdagi texnologiyaga nisbatan ishlov berish soni kamayadi. Bunda yoqilgi kam sarf bo'lib, tuproq kam zichlashadi, traktorning va kultivatorning ishlash muddati uzayadi [1].

Suv tanqisligi sharoitida mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida egat orqali sug'orishning resurstejovchi texnologiyasi ishlab chiqilgan. Bu texnologiyada g'oz'a qator oralari qora polietilen plyonka bilan mulchalanib sug'oriladi. Bunda plyonka dala uzunligi bo'ylab egat oralatib to'shalib, har 1,0-1,2 metr masofada diametri 6 mm ga teng sug'orish teshikchalari ochiladi. Suv ham egat oralatib oqiziladi. Mazkur texnologiyani qo'llash natijasida egatlar bir tekisda namlanadi, tuproq namligining bug'lanishi kamayadi, plyonka ostiga quyosh nuri tushmasligi sababli begona o'tlar nobud bo'ladi, tuproq unumdor (0-50 sm) qatlamining sifatli namlanishi hisobiga ildiz tizimi jadal rivojlanadi, sug'orish suvi 35% gacha tejaladi, paxta hosildorligi 20% gacha oshadi.

G'oz'ani tomchilatib sug'orish. Suv tejovchi texnologiyalar orasida tomchilatib sug'orish usuli suvni kam ishlatilishi bilan alohida ajralib turadi. Bu usulda suv shlanglar yordamida bevosita ekinning ildiz qatlami yaqinida joylashgan tomzichlarga ma'lum bosim ostida yetkazib beriladi. Bunday sharoitda suv ham, oziqa moddalar ham behudaga sarf bo'lmaydi.

Tomchilatib sug'orishda g'oz'ani sug'orish ishlarini qachondan boshlash kerak, qancha me'yorda va qancha muddatda degan savol tug'iladi. Birinchi sug'orish gullagunga qadar shonalash boshlanganida, ya'ni shonalar o'lchami taxminan 1 sm atrofida bo'lganida boshlagan ma'qul xisoblanadi.

Bunda iqlim sharoitiga, tuproqdagi namlik miqdoriga va g'ozaning xolatiga ham qaraladi. Tuproqda yetarli namlikni to'plab olish maqsadida birinchi suvni kattaroqme'yorda, ya'ni gektariga 300 m³ dan berib tuproqda namlikni to'plab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Keyingi sug'orishlarda yuqorida keltirilgan xisob-kitoblarga asoslanib sug'orishlarni rejalashtirish mumkin. Bunda kunlik evapotranspiratsiya ko'rsatkichi gektariga necha kubometr suvga to'g'ri kelayotgani aniqlanib, ekin koeffitsiyentiga ko'paytirish orqali xisoblanadi [2].

Tomchilatib sug'orishda suvning tuproqqa shimilib isrof bo'lishi, dalaning oxirida oqovaga tashlanishi bartaraf qilinadi. Natijada 20-50% suv tejaladi.

Matyakubov B, Xamidov A lar bergan ma'lumotlarga ko'ra, Tajriba maydonida g'ozaning o'sib-rivojlanishi va hosildorligiga qo'llaniladigan tomchilatib sug'orish texnologiyasi, sug'orish tartibi, katta ta'sir ko'rsatdi. G'ozani tomchilatib sug'orilganda uning o'sishi, rivojlanishi me'yorida kechadi va mo'l, sifatli hosil olishni hamda erta pishib yetilishi ta'minlanadi.

Shu nuqtai nazardan tomchilatib sug'orish texnologiyasini dala sharoitida qo'llash orqali g'ozaga hosildorligi tahlil qilinganda an'anaviy usulda yetishtirilgan 1-variantla g'ozaning hosildorligi 3,11 t/ga ga teng bo'lgan bo'lsa, tomchilatib sug'orilgan 2-variantda g'ozaga hosildorligi 3,97 t/ga ga, egat oralatib tomizg'ichli shlanglar o'rnatilgan 3-variantda g'ozaga hosildorligi 3,89 t/ga ga teng bo'ldi. Tomizg'ichning suv sarfi 2,0 l/soatga teng bo'lgan 4 hamda 5-variantlarda g'ozaga hosildorligi 4,22; 3,88 t/ga ga teng bo'lib, an'anaviy usulda sug'orilgan 1-variantga nisbatan g'ozaga hosildorligi gektariga 0,77-1,11 tona yuqori bo'ldi [3].

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarini ko'rsatishicha, turli xil ekinlarni (paxta, meva, sabzavot) yetishtirishda tomchilatib sug'orish usuli qo'llanilganda xuddi shu dalalarni odatdagi egatlab sug'orishga nisbatan 30-50% gacha kam miqdorda suv ishlatilgan. Shuningdek mazkur dalalarda hosil yetishtirish uchun sarflangan o'g'it (30-40%), mehnat va moddiy resurslar (30-40%) xarajatlarini ham tejaliishiga erishilgan [1].

G'ozani tuproq ostidan sug'orish (subirrigatsiya). Subirrigatsiya atamasi lotinchadagi sub – ostida, pastda va irrigation – sug'orish so'zlarining yig'indisi bo'lib, tuproq ostidan sug'orish deganidir. Subirrigatsiyaning asosiy vazifasi – grunt suvlari sathini sun'iy ko'tarish yo'li bilan tuproqning g'ozaga ildizi tarqalgan qismini namlashga erishishdir. Bu usulni faqat kollektor – drenaj tarmoqlari bilan tutashgan gidromorf va yarim gidromorf tuproqli dalalardagina qo'llash mumkin. Grunt suvlari sathi zovurlarni dimlash, yopiq drenajda gidrantlarni berkitish, shuningdek, ularni sug'orish suvi bilan to'ldirish orqali ko'tariladi.

Subirrigatsiya usulining afzalliklari:

- g'ozani sug'orishlar soni eng kamida bir martaga kamayadi, kuchsiz minerallashtirilgan, tuprog'i shorlanmagan yoki kuchsiz shorlangan yerlarda daryo suvi 1000-1500 m³/ga yoki 15-20% ga iqtisod qilinadi;

- paxtazorlarda begona o'tlar kamayadi;

- g'ozaga qator orasiga ishlov berish 1-2 martaga qisqaradi;

- yonilg'i-moylash materiallari tejaladi;

- paxta hosili 10-15% ga oshadi;

- har yili kollektor-zovurlarni tozalashga hojat qolmaydi.

Yil oxiriga borib, tuproqda tuzlar miqdori bir oz ko'paysa, kech kuz, qish va erta bahorda – ekinlar sug'orilmaydigan davrda sho'rni 1,5-2,0 ming m³/ga daryo suvi bilan yuvish tavsiya etiladi.

IQTIBOSLAR/SNOSKI/REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv Xo‘jaligi Vazirligi, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi Paxtachilik ma’lumotnomasi. Toshkent-2016 yil.
2. Mamatov S.A. Tomchilatib sug‘orish tizimi// SANIIRI, MCHJ, “Mehridaryo”, Toshkent, 2012
3. Matyakubov Baxtiyar, Xamidov Axrorxon. kollektor-zovur suvlari shakllanishini kamaytirishda tomchilatib sug‘orish texnologiyasining ahamiyati. Agro proses jurnali, 5-jild 3-son

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 9-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-9

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-9

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz